

**YUKSAK MA'NAVIYATLI AVLOD – UCHINCHI RENESSANS
BUNYODKORLARI**

Mirsanova Moxira Husniddin qizi

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika

Instituti assistenti

Tel: +998 99 525 68 63

moxiramirsanova@gmail.com

Maqola shiori: “ Vatan taraqqiyotiga mening hissam ”

Yangi O'zbekistonning ilm- ma'rifatli, yuksak ma'naviyatli, zukko, bilimga chanqoq avlodi vatan taraqqiyotida butun boshli Uchinchi Renessans davrini bunyodkorlari bo'lishlari shubhasizdir. Bizning sarhadlarimiz tarixda uzoq vaqt jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri bo'lib kelgan. Zaminimizdan zamonaviy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan ko'plab buyuk olim va mutafakkirlar yetishib chiqqan. Avvalo, biz birinchi va ikkinchi Renessans davri qachon bo'lganiga diqqat qilib olaylik avval IX- XI asrlar Muhammad al- Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Imom al -Buxoriy va boshqalarning yashab ijod etgan davri, qilgan ishlari birinchi Renessans, Amir Temur va temuriylar davri Mirzo Ulig'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar va boshqalar yashagan davri ikkinchi Renessans davri hisoblanar ekan, prizidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu haqida 1-okrabr ustoz va murabbiylar kuni munosabati bilan tashkil etilgan tantanali tadbirda ma'ruza qildilar va endilikda biz uchinchi Renessans uchun harakatdamiz dedilar. O'tmishning tajribasidan foydalanib, kelajagimizning ertasi uchun belni bog'laymiz.

O'zbekistonimiz mustaqillikka erishganiga qariyb o'ttiz yildan oshdi. O'ttiz yildirki katta karvonimiz yuksak marralarni ko'zlab, yo'lga chiqqan va katta – katta dovonlardan oshib o'tmoqda. Karvonimizning yuki vazmin, qadami zalvorli. Uning matonat bilan, ishonch va qat'iyat bilan egallab borayotgan muvofaqiyat cho'qqilarini olam kuzatib, e'tirof etib turibdi.

Ulkan karvonimizning borar manzili aniq. O'zbekiston yo'lini allaqachon qaytmas qilib belgilab olgan. Hech qanday kuch uni ko'zlangan maqsadidan, qaytara olmaydi. Mana o'ttiz yildirki, bu borada ancha ishlar amalga oshirildi. Turli sinovlardan, fitna-yu g'ovlardan matonat bilan o'tib, oldinga ildamlayotgan karvonimizga bosib o'tar dovonlaridan bexatar o'tmog'ini tilaymiz.

Birinchi prizidentimiz Islom Karimovning "O'zbekiston- kelajagi buyuk davlat" degan bashoratli so'zlarida nafaqat yaxshi niyat, balki qat'iy ishonch ham bor edi, shuningdek, bu fikr jamiyatimiz zimmasiga ulkan maqsad va vazifalarni ham yuklagan. Bu vazifa – sharafli va o'ta mas'uliyatli vazifadir. Xo'sh biz o'z zimmamizdagi vazifani qay darajada uddasidan chiqyapmiz? Berilgan imkoniyatlardan, shart- sharoitlardan unumli foydalanilgan holda shu muqaddas yurtga o'z hissamizni qo'shyapmizmi?

Avvalo, hozirda talaba ekanmiz bilimlarni chuqur egallab, kasbimizning yetuk mutaxasisi bo'lmog'imiz lozim. shundagina vatanimiz taraqqiyotiga hissamizni qo'shadigan kadrlar bo'lib yetishamiz.

Shu o'rinda O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzoning "Aytgil do'stim" nomli she'ridan parchani keltirib o'tmoqchiman:

Boshing egib tazim ayla,shukrona ayt,
Seni guldek erkalagan chaman uchun.
Osmonlarda yurgan bo'lsang tuproqqa qayt,
Aytgil, do'stim nima qildik vatan uchun..?

Qachongacha qorning o'ylab o'tadursan,
Qachongacha ko'kdan chalpak kutadirsan,
Axir vatan bitta, sen ham bittadursan,
Aytgil, do'stim nima qildik vatan uchun..?

Shu soylardan suvlar urgin yuzingga sen,
Bir bor nazar solgin bosgan izingga sen,

Shu savolni berib ko'rgin o'zingga sen,

Aytgil, do'stim nima qildik vatan uchun?

Chindan har birimiz o'z-o'zimizga shu savolni berib ko'rsak: Vatan uchun nima qildik? O'z hissamizni qo'shdikmi? Qaysi soha vakili bo'lishimizdan qat'iy nazar har birimiz vatan oldidagi burchimizni anglamog'imiz lozim.

Mening faxrli kasbim o'qituvchilikdir .O'qituvchi vatan uchun qanday hissasini qo'shishi mumkin? O'qituvchilik juda mas'uliyatli kasb ekanligi hammamizga ma'lum, chunki u yosh avlodni ma'nan yetuk, ma'rifatli, bilimli, saviyasi baland bo'lib kamol toptirishga mas'uldirlar. Ammo, hamma o'qituvchilar ham o'z burchini chin dildan ado etadilarmi? Faqat oylik olib, oila boqish, qorin to'ydirish uchun o'qituvchilikni kasb qilganlari yo'qmi jamiyatimizda? Aksincha talaygina,

Biz o'qituvchi va murabbiylar zimmasidagi vazifa juda mashaqqatli va juda ulug' vazifadir .

Bu xususida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz " nomli kitobida shunday yozadi.

"... butun ta'lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor o'qituvchilarning eng muhim vazifasi - yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir" deydi rahbarimiz domlalarimiz-u murabbiylarimizning vazifasiga alohida to'xtalib .

Bu fikrlarni mag'zini chaqmog'imiz va munosib bo'lmog'imiz lozim. Qachonki biz kasbimizni oqlash uchun vijdonan harakat qilsak, DTS iga mos tarzda darslarni tashkil qilsak, har bir o'quvchini o'z farzandimizdek qabul qilib ular bilan ishlasak, shundagina vatan taraqqiyotiga o'zining hissasini munosib tarzda qo'sha oladigan yuksak ma'naviyatli avlodni voyaga yetkazishda biz ham o'z hissamizni qo'shgan bolamiz.

Zamon qaltis va murakkab. Vatanning ongli fuqorosi bo'lgan, yurt kelajagi uchun o'zini mas'ul hisoblagan har bir insondan davr talabidan kelib chiqib fidoiylilik qilish talab etiladi. Mamlakatning buyuk kelajagini men qanday

tushunaman? O'sha buyuk kelajakni yaqinlashtirish uchun men nima qilmog'im kerak? Degan savol har birimizga tinchlik bermasligi lozim. chindan ham buyuk kelajak nima? Uning belgi va xususiyatlari nimadan iborat? Qanday mamlakatni buyuk deb atash adolatli bo'ladi? Shu kabi qator savollarga javob izlayman. Ulkan maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan ulug'vor ishlar ko'lamini tasavvur etishga, ulkan islohotlarning mazmun - mohiyatini idrok etishga urinaman va shunday to'xtamga kelaman: buyuklik, ulug'vorlik, xalq nufuzining kattaligi bilan, yoki harbiy salohiyatimizning balandligi, boylik, jahon bozorida tutgan mavqeyimiz bilangina o'lchanmas ekan. Millatning qadr- qimmatini, barkamolligi yetuk ma'naviyatli bo'lishimizga ham bog'liq ekan. Bejizga birinchi Prezidentimiz Islom Karimov bir kitobining nomini "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" deb nomlamaganlar. Yuksak ma'naviyatli avlodi bo'lgan xalq hamisha peshqadamdir. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuchdir. Chunki ma'naviyat bor joyda hamma soha gurkirab rivojlanadi, yuksaladi.

Kelajagimizning buyukligi shubhasiz, uning nishonalarini ko'rib nematlarini totib turibmiz. Men kabi o'qituvchi va murabbiylar yosh avlodni yuksak ma'naviyatli, barkamol shaxs etib tarbiyalashda fidokorlik bilan ishlasak, keyin bu avlod yuksak natijalarga erishadi, bizning vatan uchun hissamiz ham shu faxrli kasbimiz ortidan qo'shiladi. Prezidentimiz maqsad qilib belgilagan- Uchinchi Renessansning bunyodkori biz ham sanalamiz, bir safdamiz, bir karvondamiz, karvonning muvofaqiyatli odimlamog'i uchun fidoiy bo'laylik, befarqlikni, loqaydlikni bas qilaylik. Diyorimiz muqaddas va bebahodir, uning dovrug'ini yuksaklarga ko'taraylik birodarim, tengdoshim, yurtdoshim.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Шавкат Мирзиёев, Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда қурамиз, “Ўзбекистон”, Тошкент, 2016.

2. Ислом Каримов, Юксак маънавият - енгилмас куч, “Маънавият” нашриёти, 2008.

3.Икбол Мирзо, Агар жаннат кўкда бўлса..., “Шарқ”, Тошкент, 2010.

4.FORUM.ZIYOUZ.COM